

FARG'ONA VA TOSHKENT MAQOM YO'LLARINING IJRO USLUBLARI

No'monov Iftixor Iqboljonovich

Andijon davlat universiteti Musiqa
san'ati kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning ikki yirik maqom maktabi – Farg'ona va Toshkent – ijrochilik an'analari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki mintaqaning maqom ijrosidagi texnik, emotiv va interpretativ xususiyatlari o'rganilib, ijodkorlar ijrosida bu yondashuvlarning ifodalanish yo'llari tahlil etiladi. Farg'ona maktabi ma'lum ohang strukturalari, lirikona holatlanish va noyob melizmatik tafsilotlar bilan ajralib turadi; Toshkent ijrochiligi esa ritmik murakkablik, kuchli kontrastlar va salobatli ifoda orqali o'ziga xos uslubni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: maqom, ijro uslubi, Farg'ona-Toshkent maktabi, cholg'u uslubi, ashula yo'li, katta ashula, patnisaki ashula, melizmatik ijrovokal texnikasi, xonanda maktabi, ansambl ijrosi, mahalliy etnik uslub, an'anaviy va zamonaviy uyg'unligi, maqom melodiyalari,.

“Shashmaqom” yaratilgandan keyingi davrlarda Toshkent va Farg'ona vodiysida bir necha musiqa asarlari turkumlari yaratildi. Maqomlarning ma'lum variantlari yuzaga keldi bastakorlikda maqom yo'llarini turli doira usuliga tushirib, ularni melodik yoki ritmik variatsiyasini ishlash uchun imkoniyatlar keng bo'lganining natijasidir. Bunday maqomchasiga ishlangan musiqa asarlari orasida kuy qiyofasi va tuzilish qonun-qoida xususiyati belgilari nuqtai nazaridan to'rt maqom turkumlariga aloxida ajralib turadi. Bayot, Dugohi Husayniy, Chorgoh, Shahnozi Gulyor. Ularning har biri olti va yettigacha shohobchalarga ega, hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi. Masalan: Bayot I, II, III, IV, V; Chorgoh I, II, III, IV, V; Dugoh Husayniy I, II, III, IV, V, VI, VII. Eng xususiyatli tomoni shuki, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari “Shashmaqom” ashula bo'limining birinchi va ikkinchi qismiga kirgan sho'balar; Saraxbor, Nasr, Savt, Mo'g'ilcha kabi maqom sho'balaridagi tuzilish tartibida

ishlangan, ya'ni ulardagi takt-ritm o'lchovi, ashula yo'lining xarakati saqlangan. Masalan: Bayot I, Dugoh Husayniy I, Chorgoh I, Saraxborlar tartibida ishlangan bo'lib, ularning takt-ritm o'lchovi $\frac{2}{4}$ doira usuli, ularga aytiladigan g'azallar o'lchovi, ashula yo'lidagi kuy xarakatlari ham "Shashmaqom" dagining o'zi.

Farg'ona va Toshkentda mashhur bo'lgan bu maqom turkumlari asosan ashula yo'llaridan bo'lib, ularda "Shashmaqom" dagi kabi cholg'u yo'llari uchramaydi lekin, sozandalar bu ashula yo'llarini cholg'u asarlari sifatida xam ijro etib kelganlar. Bayot, Dutoh Husayniy va Chorgoh yo'llari Shashmaqomning shu nomlari bilan atalgan sho'balari asosida yaratilgan bo'lib, Shahnozi Gulyor esa turli maqom sho'balari, ayniqsa, Segoh maqom sho'balari asosida yuzaga kelgan. Bu musiqa asarlarining kuy jumalari va harakati nuqtai nazaridan maqom yo'llariga taqqoslab ko'rilsa Farg'ona, Toshkentda mashhur bo'lgan maqomlarning "Shashmaqom" ga munosabati masalasini to'g'ri tushinish mumkin.

Farg'ona va Toshkentda mashhur bo'lgan maqom yo'llari "Shashmaqom" sho'balariga, ko'proq ashula jumlarining ichki kuy xarakatlari bilan emas, balki shu jumlarning yaxlit qiyofasi nuqtai nazaridan mos kelishi mumkin.

Masalan, Bayot nomi Navo maqomidagi Talqin, Nasr sho'balarida uchraydi va Talqini Bayot, Ufori Bayot deb ataladi. Farg'ona va Toshkentda mashhur bo'lgan maqom Bayot "Shashmaqom" dagi Bayot sho'balarining ma'lum varianti sifatida yuzaga kelgan. Bunda Bayot sho'balarining doira usuli Saraxbordagi kabi soddalashtirib olinib Bayot I deb atalgan.

Masalan, Nasri Bayot bilan Bayot I ni olib qaraylik. Ularning boshlanish jumlaridagi ikki xat ko'rinishi bir-biridan farq qiladi, lekin, Bayot I ning ikki xati ham Bayot sho'balarining variyasiyadir. Bayot I da bu ashula bo'lagi variyasiya etilar ekan, muhim o'zgarishlarga uchraydi. Ularning kuy xarakatini qiyosiy ravishda kuzatilsa, asosiy ashula yo'li doirasidan chiqib ketish xollari seziladi. Lekin Bayotning ruhiy ta'siri, jumlarning yaxlit ko'rinishidagi umumiy qiyofa ma'lum darajada saqlanib qoladi.

Bayot I ning uchinchi xatini taqqoslab ko'raylik. Bayot I avjida navo maqomining Bayot sho'balarida uchraydigan Namudi Bayot va Namudi Navoning ma'lum variantlari uchrashi fikrimizning yana bir dalilidir.

Bayotning II, III, IV, V sho'balarida xam Shashmaqom yo'llariga nisbatan bunday o'xshashlik mavjuddir. Bayot II ni Nasri Bayot taronalarining ma'lum melodik variatsiyasi deyish mumkin. Taronai Nasri Bayot doira usuli xam Bayot II da o'zgarmaydi. Uning ashula yo'llari, kuy jummalari, ayniqsa, Nasri Bayotning II taronasi majmuasiga o'xshaydi. Bayot II ning avj qismi Nasri Bayot boshlanishidagi jumladan olib ishlangan va tarona doira usuliga solingan.

Bayot III Navodagi Bayot sho'balarining boshlanish ashula jummalarining beshinchi parada ya'ni kvintaga ko'tarib, ma'lum darajada o'zgartirib ishlangan shaklidir. Bayot III ni "Shashmaqom" sho'balariga taqqoslab ko'rib bu ashulani yo'lini ishlashda Savti Ushshoqdan xam foydalanganligi bilinadi. Bunda Savti Ushshoq Bayot III pardasiga tushirilgan (tonalnost, tovush qatoriga). Bayot IV-V, Bayot III yoki namudi Bayotning ritmik-melodik variatsiyasi sifatida ishlangan ashula yo'llaridandir.

Bayot V takt-ritm o'lchovi va doira usuli "Shashmaqom" Savt va Mo'g'ilcha tipidagi sho'balarning Qashqarcha shahobchalaridagi kabidir. Bayot IV esa Talqin doira usulida ijro etiladi. Shunday qilib Toshqiyent va Farg'onada mashhur bo'lgan Bayot shahobchalari Navo maqomidagi sho'balarning ma'lum variatsiyalari sifatida gavydalanadi. Farg'ona, Toshkent maqom yo'llaridan Chorgoh haqida xam shuni aytmoq mumkin.

Chorgoh I-II-III-IV-V tartibda ajratiladi. Chorgoh nomi "Shashmaqom" dagi Dutoh maqomining sho'balari, jumladan, Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Savti Chorgoxdarda uchraydi.

Chorgoh I o'zining ulug'vorligi, yoqimligi bilan Sarahbori Dugohning ma'lum kuy shakli sifatida yuzaga kelgan. Sarahbori Dugohning kuy strukturasi Chorgoh I da qisqartirilgan va ma'lum o'zgarishlar bilan ishlangan. Birinchidan Chorgoxda Sarahbori Dugohning doira usuli, tempi, unga mos keladigan g'azal o'lchovi asosan saqlanib qolgan.

Hofizlar Chorgoh I ni so'zsiz aytiladigan cholg'u muqaddima bilan boshlaydilar. Sarahbori Dugohning kuy yo'nalishi va xarakati Chorgoh I da oxirigacha davom etadi. Uning Miyon parda, Dunasr va Numudi, Chorgoh I da xamdir.

Chorgoh I ning yaratilishida Dugoh maqomining boshqa sho'balari xam asos bo'lgan. Namudi Muxayyor Chorgoh I ning ancha puxta ishlangan katta avjida foydalanilgan.

Chorgoh II esa taronalarning takt-ritm o'lchovi doira usuliga tushirilgan Savti Chorgoh sho'balarining variantidir va Namud tushirib qoldirilgan.

Chorgoh III ashula yo'lini yaxlit xolda Savti Chorgoh tarkibida uchratish mumkin. Ashula davomida kuy xarakatining yo'nalishi va umuman ashula yo'li Savti Chorgoh va Chorgoh III da bir xil desa bo'ladi. Faqat doira usuli, tempi Chorgoh III da ancha tezlashtirilgan va Savti Chorgoxdagi katta avj-Namudi Muxayyari tushurib qoldirilgan.

Chorgoh IV-V-VI shaxobchalari kuy mavzui jixatidan bir-birining ritmik variyasiyasi xisoblanadi. Uning IV shahobchasi Qashqarcha doira usulida bo'lib, uning katta avjida esa Chorgohning ma'lum ko'rinishi foydalanilgan. Chorgohning oxirgi shahobchasi o'ziga hosdir. Bunda ufor doira usulidan foydalanilgan bo'lib, uning usul tempi ancha suslashtirilgan. Umuman bu Chorgoh yo'llarini Toshkent, Farg'onalik hofizlar o'zlarining ijro uslubiga moslashtirilgan xolda "Shashmaqom" sho'balaridan qisqartirilib olganlar degan xulosaga kelish mumkin.

Toshkent va Farg'onada mashhur bo'lgan maqomlarning yana biri Dugohi Husayniydir. Bu «Dugoh» maqomining sho'balaridan Husayniyi Dugoh asosida yuzaga kelgan "Shashmaqom"dagi (Dugohi) Xusayniy Dugohning shoxobchalari juda kam qolgan. Dugohi Husayniy Toshkent, Farg'ona variantida esa, Dugoh maqomidagi boshqa sho'balar xam foydalanilgan. Dugohi Husayniyda xam "Shashmaqom" Nasr yo'llaridan xisoblangan Husayniyning doira usuli o'zgartirilib, Sarahbor usulida tushirilgan.

Dugohi Husayniyning “Shashmaqom”dagi va Farg’ona, Toshkentda ijro etiladigan turlarini taqqoslab ko’rilsa, ularning ashula yo’llari xar qancha farqli bo’lmasin, kuy yo’nalishi, jumalari bir xil asosga ega.

Dugoh Husayniyning ashula yo’llari Dugoh maqomining sho’balari qatorida taronalaridan xam foydalanilgan. Uning shohobchalari ishlanish prinsipi nuqtai nazaridan Bayot va Chorgoh yo’llariga o’xshaydi.

Dugoh Husayniy 1-Sarahbor usulida, uning ikkinchisi Savt, keyingi shohobchalari Qashqarcha usullarida. Dugoh Husayniyning Ufori bo’lsa, Navo maqomining Ufori Bayotiga va uning Toshkent, Farg’ona variantidagi I-Bayot yo’llariga o’xshaydi. Dugohi Husayniy va umuman Dugoh maqomining qismlari xalq orasida surnay yo’llari shaklida xam mashhur bo’lgan. Surnay Dugohi, Mushkiloti Dugoh, Samoyi Dugoh kabi.

Farg’ona-Toshkent maqom yo’llaridan yana biri Shaxnozi Gulyordir. Bunday nom musiqa nazariyasiga oid eski risolalarda uchrasa-da, “Shashmaqom”da bu ibora bilan atalgan sho’balar yo’q, lekin, Shahnozi Gulyor maqomlarning turli sho’balari tarkibidagi ashula jumlarini, ayniqsa, Segoh maqomining yo’llarini eslatadi. Shahnozi Gulyorning asosiy yo’li Gulyor, Shahnoz, Chapandozi Gulyor, Ushshoq, Ufori Gulyor bilan mashhurdir.

Ularning Gulyor qismi $\frac{3}{4}$ doira usulida, Shahnoz $\frac{3}{4}$; $\frac{4}{4}$ murakkab takt-ritm o’lchovida ijro etiladi.

Chapandozi Gulyor Chapandoz doira usulida, Ushshoq Sarahbor, Ufori Gulyor esa Uforlar doira usulida ijro etiladi. Shaxnozi Gulyor shohobchalari tuzilishi nuqtai nazaridan Bayot, Chorgoh, Xusayniy shohobchalaridan doira usuli va kuy qiyofasidan tubdan farq qiladi.

Shunday qilib, Farg’ona-Toshkent maqom yo’llaridan Bayot, Dugoh Husayniy va Chorgoh “Shashmaqom”ning shu nomlari bilan ataladigan sho’balari asosida yaratilgan. Shahnozi Gulyor esa turli maqomlar sho’balari xususan, Segoh maqomi sho’balari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Shunisi xususiyatliki, yuqorida aytilgan uch maqom yo’llaridagi xar bir ashula yo’li-Bayot I, Chorgoh I, Dugoh

Husayniy I “Shashmaqom”dagi Sarahborlarning doira usuli, takt-ritm o’lchovi va ularga aytiladigan she’r o’lchovlari mos keladi.

Farg’ona-Toshkent maqom yo’llarining ikkinchi qismi esa, maqom sho’balarining taronalari doira usuli va takt-ritm o’lchovida bo’ladi. Bu maqomlarning qolgan qismlari ko’pincha “Shashmaqom”ning Savt va Mo’g’ulchalariga o’xshaydi va ularning doira usullari Qashqarcha va Uforlari kabidir.

Bayot, Chorgoh, Dugohi Husayniy yaxlit holda olib qaralsa, ularning tuzilishida doira usuli nuqtai nazaridan qaralsa, qandaydir bir (prinsip) tartib-qonun-qoidaga asoslanganligini ko’rish mumkin. Shahnozi Gulyor shahobchalarining birinchi va ikkinchisidan tashqari xamma qolganlarida bu tartib saqlangan. Uning oxiriga kiritilgan Ushshoq yo’li esa Shaxnozga tasodifiy kiritilgan, chunki u sarahbor uslubida ishlangan. Shahnozi Gulyor va uning shahobchalari tuzilish jixatidan Bayot, Chorgoh, Dugoh Husayniydan tubdan farq qilar ekan, bularni to’rt maqom sifatida alohida qilib, maqomlar guruhidan ajratib qarash to’g’ri bo’lmaydi. Ba’zi hofiz va musiqachilar Toshkent, Farg’onada mashhur bo’lgan bu maqom yo’llarini Chor maqom deb atab kelganlar, lekin, o’zining nom xususiyatlariga ega bo’lgan bu maqom yo’llarida ko’pgina chalkashliklar bor. Ular “«Shashmaqom»” sho’balari asosida yaratilgan bo’lsada, Chor maqom deb maxsus nom berish haqida aniq bir fikr aytish qiyin. Toshkent-Farg’ona maqomlarini “Shashmaqom” yo’llari va maqom sho’balari asosida yaratilgan variantlari qatoriga kiritish mumkin bo’lgan ashula yo’llari deb hisoblansa to’g’riroq bo’ladi. Agar Shahnozi Gulyor Chor maqomining boshqa yo’llaridan o’zining tuzilishi qoidalari jihatidan farq etar ekan, uni bu maqom yo’llariga kiritishni xojati yo’q. Shahnozi Gulyorga o’xshagan yuqorida zikr etilgan maqom yo’llariga mos kelmaydigan juda ko’p turkumli variantlar xalq orasida mashhurdir.

Toshkent va Farg’onada mashhur bo’lgan va Buzruk maqomining Nasrullovi sho’basi asosida yaratilgan Nasrullovi yoki Ajam, Miskin kabi ko’plab maqomlarning variantlarini Toshkent-Farg’ona maqomlari tarkibiga qo’shish mumkin. Shuning uchun ham Chor maqom iborasini qo’llashga qo’shilish qiyin. Bu maqom variantlari doirasini cheklashga olib keladi xolos.

Maqom yo'llarining variantlari o'zbek xalq musiqasiga chuqur ildiz otganini alohida aytib o'tish zarur. Mashhur hofizlar Hoji Abdulaziz, Mulla To'ychi, Sodirxon, Domullo Halim kabi san'atkorlar maqom yo'llari asosida yaratilgan bunday variantlarni katta mahorat bilan ijro etibgina qolmay, ular asosida ko'plab ashula yo'llari ijod etganlar. Bu narsa maqom yo'llarining xalq orasida katta obro' qozonganliganing dalilidir. "Shashmaqom" shakllangandan so'ng Markaziy Osiyoning turli shahar va qishloqlariga yoyila boshladi. Maqomlar davr o'tishi bilan birga takomillashib bordi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida mavjud ijrochilikda ba'zi farqlar borligi "Shashmaqom" taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Turli shaharlarda keng tarqalgan maqom yo'llari u yerdagi tinglovchilar ta'biga moslashtirilgan holda ba'zi o'zgarishlar bilan ijro etilib keldi.

Shunga bog'liq holda maqom yo'llarining turli variantlari paydo bo'ldi. Turli shaharlarda «Shashmaqom» asosida uning ashula bo'limi ikkinchi qismiga kiradigan Savt, Mo'g'ilcha kabi sho'balar yaratilganligani bilamiz. Bu sho'balarning yaratilishi maqom turkumlarini yanada rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Maqom yo'llarida turli vazn-ohang va juz'iy o'zgartirishlar bilan qayta (melodik va ritmik variatsiya) ishlash imkoniyati borligi maqomlarni keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Xalqning oddiy ashula yo'llaridan farqlanadigan Savt va Mo'g'ilcha kabi sho'balar maqomlarning mashhur bo'lishida yanada katta rol o'ynaydi. Natijada bastakorlar tomonidan maqom uslubida yangi-yangi cholg'u va ashula yo'llari yaratildi. Ajam, Miskin, Nasrullovi, Chapandozi Bayot, Mirza Davlat, Cho'li Iroq, Kurd kabi yuzlab mashhur cholg'u yo'llari yaratildi. Ushshoq, Abdurahmonbegi, Guluzorim, Toshkent Irog'i, Mustazod, Suvora, Feruz, Qo'shchinor, Farg'ona Nasrullovi kabi ko'plab kuy va ashula yo'llari maqom sho'balari asosida yuzaga keldi. U cholg'u va ashula yo'llarining kuy harakati, jumalari, kuy va ashula qiyofasi, ritmik asoslari maqom qismlaridan farq qilmaydi. Xatto, bu variantlarning nomlanishida ham o'zlari mansub bo'lgan maqom sho'balaridagi iboralardan foydalanilgan. Ayniqsa, bunday cholg'u yo'llarining xona va bozgo'y kabi jumalardan tuzilganligi, maqom lad

tovushqatorlariga mos kelishi, ularning maqom sho'balarining ma'lum variantlari ekanidan darak beradi.

Bularning ko'pchiligi maqomlardagi kabi bir necha shoxobchalarga ega. Ba'zi maqom yo'llarining turli variantlari yuzaga kelishi bilan ularning hammasi ham eshituvchilarning sevimli ashulalari bo'lib qoldi. Masalan, Ushshoqning turli variantlari; Ushshoqi Samarqand, Ushshoqi Qo'qand, Ushshoqi Sodirxon, Toshkent va Farg'onada ijro etilgan uning varianti Fattoxxon Ushshoqi shular jumlasidandir. Maqomlar cholg'u va ashula yo'llari asosida yaratilgan bu variantlar qatorida to'y va xalq shodiyonalarida surnayda maxsus ijro etiladigan; Buzruk, Navo, Dugoh, Dugohi Xusayniy, Mustazod, Chorgoh kabi cholg'u yullarini alohida aytib o'tmoq lozim. Bu surnay yo'llari xalq ommasiga juda ham singib ketgan. Shunday qilib, xalq bastakorlari murakkab qiyofadagi maqom yo'llarining necha yuzlab variantlarini, xatto, eng oddiy tinglovchiga ham yetib boradigan darajada qayta ishlab ularning ta'biga moslashtirdilar.

“Shashmaqom” ning olti tomligi xalqimiz musiqa merosini o'rganish va o'rgatishda ma'lum xissa qo'shadi degan umiddaman.

“Shashmaqom” variantlarining ko'plab yaratilganligi maqomlar o'z navbatida xalq musiqa ijodiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi. Maqom yo'llarini o'zbek xalqi musiqa merosi bilan bog'liq holda chuqur o'rganish, maqomlarning, xalq musiqa merosida qanchalik katta ahamiyatga egaligini to'g'ri tushunib olishga yordam beradi. O'zbek musiqa madaniyatining yanada taraqqiy ettirish uchun zarur bo'lgan musiqiy madaniy manbalardan biri “Shashmaqom” melodik materiallaridan to'g'ri foydalanish yo'llarini ochishga imkon beradi. “Shashmaqom”ning olti tomligi xalqimiz musiqa merosini o'rganish va o'rgatishda ma'lum hissa qo'shardi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Qosimov, F. (2008). O'zbek maqom san'ati. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Sultonov, Z. (2012). Shashmaqom: tarix, nazariya, ijro. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

3. Yusupova, D. (2004). Maqomlar poetikasi va estetikasi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Abdurashidov, M. (1998). Maqom san'ati asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Saidov, M. (2015). "Shashmaqomning estetik xususiyatlari va musiqiy ifoda vositalari" // San'atshunoslik ilmi yangiliklari.
6. Iskandarov, A. (2020). Maqom san'ati va tasavvuf. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.